

**MAQOLALARNING STRUKTURAVIY ELEMENTLARINI VA
ULARNI YOZISH XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

*Ilmiy rahbar: **Rahimboyev Musobek Komiljon o'g'li***

Falsafa fanlari doktori Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti

Bobxonova Zahro Omonboy qizi

1-bosqich, 252-guruh talabasi Buxgalteriya hisobi yo'nalishi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy maqolalarning tuzilishi, ularning asosiy tarkibiy qismlari hamda ilmiy matn yozishning muhim jihatlari keng tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ilmiy maqola yaratishda sarlavha tanlash, annotatsiya yozish, kirish va asosiy qismlarni mantiqiy shakllantirish, xulosa chiqarish hamda foydalanilgan adabiyotlarni rasmiylashtirish kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, maqolada ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari, fikrlarning izchilligi, dalillarning aniqligi va manbalardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, ilmiy manbalarni tahlil qilish va suhbat metodlaridan foydalanildi. Ushbu maqola talabalar, yosh izlanuvchilar va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun ilmiy maqola yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ilmiy maqola, maqola strukturasi, akademik yozuv, ilmiy uslub, annotatsiya, metodologiya, tadqiqot, xulosa, manbalar, ilmiy tahlil.

Annotation: This article examines the structure of scientific articles and the main features of academic writing in detail. The study focuses on important aspects of preparing a scientific paper, including creating an effective title, writing an annotation, organizing the introduction and the main body logically, drawing conclusions, and formatting references correctly. In addition, special attention is given to the characteristics of academic style, coherence of ideas, accuracy of evidence, and the proper use of sources in scientific writing. The research was carried out through observation, analysis of scientific materials, and interview methods. This article is intended to help students, young researchers, and academic writers improve their scientific writing skills and develop a deeper understanding of article composition.

Key words: scientific article, article structure, academic writing, scientific style, annotation, methodology, research, conclusion, references, scientific analysis.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются структура научной статьи и основные особенности академического письма. В ходе исследования освещаются такие важные вопросы, как выбор заголовка, написание аннотации, логическое построение введения и основной части, формулирование заключения

и правильное оформление списка литературы. Кроме того, особое внимание уделяется особенностям научного стиля, последовательности изложения мыслей, точности аргументов и эффективному использованию источников в научной работе. В процессе исследования были применены методы наблюдения, анализа научных материалов и интервью. Данная статья имеет практическое значение для студентов, молодых исследователей и всех, кто стремится совершенствовать навыки написания научных статей.

Ключевые слова: научная статья, структура статьи, академическое письмо, научный стиль, аннотация, методология, исследование, заключение, литература, научный анализ.

Kirish:

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, har bir buyuk kashfiyot, har bir ilmiy yangilik va har bir yirik g'oya, avvalo, yozuv orqali saqlab qolingani ko'rish mumkin. Ilm-fan rivojlangan sari insonlarning bilimni tartibli ravishda yetkazishga bo'lgan ehtiyoji ham ortib borgan. Bugungi kunga kelib esa ilmiy maqola ilmiy fikrni ifodalashning eng muhim va eng ta'sirchan shakllaridan biriga aylandi. Zamonaviy dunyoda ilmiy maqola oddiy matn emas, balki tadqiqotchining ilmiy salohiyati, fikrlash doirasi, tahlil qilish qobiliyati va akademik madaniyatini namoyon etuvchi asosiy vosita sifatida baholanmoqda.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda ilmiy axborot almashinuvi mislsiz darajada tezlashdi. Dunyoda har kuni minglab yangi ilmiy maqolalar chop etilib, turli sohalardagi muammolar yechimiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xalqaro ilmiy bazalar, elektron kutubxonalar va ilmiy platformalarning kengayishi natijasida ilmiy maqola yozish ko'nikmasi bugungi zamon talabi darajasiga chiqdi. Chunki har qanday ilmiy tadqiqotning qadri va ta'siri, ko'p jihatdan, uning qanday shaklda yozilgani va ilmiy jamoatchilikka qay darajada to'g'ri yetkazilganiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ilmiy maqolalarning strukturaviy elementlarini va ularni yozish xususiyatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ilmiy maqolaning sifati faqat undagi ma'lumot bilan emas, balki uning tuzilishi, mantiqiyliги va ilmiy uslubiga ham bevosita bog'liq. Hattoki kuchli tadqiqot ham noto'g'ri tashkil etilgan maqola sababli xalqaro jurnallar tomonidan rad etilishi mumkin. Shu bois rivojlangan davlatlarda ilmiy maqola yozish madaniyatiga alohida e'tibor qaratilib, akademik yozuv mustaqil yo'nalish sifatida o'qitilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda talabalar hamda tadqiqotchilarni maqola yozishga professional tarzda tayyorlash tizimi shakllangan.

O'zbekistonda ham ilm-fan va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ilmiy faoliyatga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortmoqda. Ayniqsa,

yoshlarning ilmiy izlanish olib borishi, xalqaro jurnallarda maqolalar chop etishi va ilmiy loyihalarda qatnashishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu esa ilmiy maqola yozish madaniyatini chuqur o'rganishni yanada muhimlashtirmoqda. Chunki bugungi talaba kelajakdagi mutaxassis, tadqiqotchi va ilm-fan rivojiga hissa qo'shuvchi shaxs hisoblanadi.

Ilmiy maqola ma'lum bir tartib va qoidalarga asoslangan holda yoziladi. Odatda maqola sarlavha, annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, asosiy qism, metodologiya, natijalar, muhokama, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar kabi muhim strukturaviy qismlardan iborat bo'ladi. Har bir qismning o'z vazifasi mavjud. Masalan, sarlavha mavzuning mohiyatini ifodalasa, annotatsiya maqola haqida qisqacha ma'lumot beradi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanadi, asosiy qismda esa tadqiqotning mazmuni yoritiladi. Xulosa qismi umumiy natijalarni jamlab beradi. Aynan shu qismlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan holda yozilishi maqolaning ilmiy qiymatini oshiradi.

Mashhur olim Albert Eynshteynning: "Agar siz biror narsani sodda tushuntirib bera olmasangiz, demak uni yetarlicha tushunmagansiz", degan fikri ilmiy maqola yozishning mohiyatini juda aniq ifodalaydi. Chunki haqiqiy ilmiy maqola murakkab fikrlarni ham sodda, ravon va tushunarli shaklda bayon qila olishi kerak. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy esa ilm-fan insoniyat taraqqiyotining asosiy omili ekanligini ta'kidlagan. Bu fikrlar ilmiy yozuv va akademik madaniyatning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur mavzuni o'rganish orqali ilmiy maqola yozishdagi asosiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda ayrim talabalar va yosh tadqiqotchilar ilmiy uslubda yozish, manbalarni to'g'ri keltirish, fikrlarni izchil bayon qilish yoki plagiatdan qochish masalalarida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ilmiy ishlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, internetdagi tayyor ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish ilmiy saviyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli ilmiy maqola yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, akademik yozuv madaniyatini shakllantirish, ilmiy etikaga rioya qilish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy maqola yozish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, seminarlar va treninglarning tashkil etilishi yosh tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ilmiy maqolalarning strukturaviy elementlarini va ularni yozish xususiyatlarini o'rganish nafaqat ilmiy faoliyat samaradorligini oshiradi, balki zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti uchun ham muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki sifatli va puxta yozilgan ilmiy maqola yangi bilimlarning yaratilishi, ilmiy hamkorlikning rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi eng muhim vositalardan biridir.

Asosiy qism:

Ilmiy maqolalarning strukturaviy elementlarini va ularni yozish xususiyatlarini o'rganish jarayonida turli ilmiy manbalar, maqolalar hamda amaliy kuzatuvlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida maqola yozishning nazariy jihatlari bilan bir qatorda amaliy tomonlarini ham o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki ilmiy maqola faqat nazariy bilim asosida emas, balki amaliy tajriba va kuzatuvlar asosida mukammal shakllanadi. Shu sababli tadqiqot davomida kuzatish, tahlil, suhbat va taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Mavzuni chuqurroq o'rganish maqsadida To'rtko'l hududidagi bir nechta tashkilot va ta'lim muassasalarida bo'lib, ilmiy hujjatlar bilan ishlash jarayonlari kuzatildi. Xususan, bir korxonaga tashrif buyurilib, u yerda hujjatlar bilan ishlovchi mutaxassislar hamda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlar bilan suhbat o'tkazildi. Suhbat davomida ilmiy maqola yozishda eng muhim jihat sifatida fikrlarning tartibli joylashtirilishi va maqola qismlarining bir-biri bilan uzviy bog'lanishi ta'kidlandi. Korxonada mutaxassislarining fikricha, hatto kuchli ma'lumot ham noto'g'ri tuzilgan maqola sababli o'z ta'sirini yo'qotishi mumkin.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan intervyularda ko'pchilik yosh tadqiqotchilar ilmiy maqola yozishda asosan annotatsiya, kirish va xulosa qismlarini shakllantirishda qiyinchilikka duch kelishi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, mavzuning dolzarbligini ilmiy asosda yoritish va fikrlarni qisqa, aniq hamda ilmiy uslubda ifodalash ko'pchilik uchun murakkab jarayon ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga, ayrim talabalar foydalanilgan adabiyotlarni rasmiylashtirish yoki manbalardan to'g'ri iqtibos olish bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega emasligi ham aniqlandi.

Kuzatishlar davomida ilmiy maqolaning har bir strukturaviy elementi alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Jumladan, maqola sarlavhasi o'quvchining diqqatini tortuvchi eng birinchi qism hisoblanadi. Agar sarlavha qisqa, aniq va mazmunli bo'lsa, maqolaga bo'lgan qiziqish ortadi. Annotatsiya esa maqolaning qisqacha mazmunini ifodalab, tadqiqotning maqsadi, metodlari va natijalari haqida umumiy tasavvur beradi. Tahlil qilingan ayrim maqolalarda annotatsiya juda uzun yoki mavhum yozilgani sababli asosiy mazmun yo'qolib qolganligi kuzatildi.

Kirish qismi maqolaning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida tadqiqot davomida alohida tahlil qilindi. Chunki aynan kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammo, maqsad va vazifalar asoslab beriladi. O'rganilgan ilmiy maqolalar orasida kuchli kirish qismiga ega bo'lgan ishlarda mavzu kengroq yoritilgani va o'quvchini ilmiy fikrga jalb qilish darajasi yuqori ekanligi sezildi. Intervyu davomida ayrim mutaxassislar kirish qismida statistik ma'lumotlar, real misollar va mashhur olimlarning fikrlaridan foydalanish maqolaning ilmiy salmog'ini oshirishini ta'kidladilar.

Asosiy qism esa tadqiqotning markaziy qismi bo'lib, unda nazariy va amaliy

ma'lumotlar o'zaro uyg'un holda yoritilishi kerakligi aniqlandi. Tadqiqot davomida ayrim maqolalarda fikrlarning tartibsiz joylashtirilgani yoki bir mavzudan ikkinchisiga keskin o'tish holatlari uchrashi kuzatildi. Bu esa maqolaning umumiy sifatiga salbiy ta'sir qilishi qayd etildi. Shu sababli ilmiy maqola yozishda mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish eng muhim talablardan biri ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida yana bir muhim muammo — plagiat masalasi ham kuzatildi. Ayrim yosh tadqiqotchilar internet manbalaridan olingan ma'lumotlarni tahlilsiz va qayta ishlovsiz qo'llashi natijasida ilmiy ishlarning sifati pasayishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Suhbat o'tkazilgan mutaxassislar ilmiy maqola yozishda muallifning shaxsiy fikri, tahlili va mustaqil yondashuvi bo'lishi kerakligini alohida ta'kidladilar. Chunki haqiqiy ilmiy ish faqat ma'lumot yig'ish emas, balki ularni tahlil qilish va yangi xulosalar chiqarish orqali qadrlanadi.

Shuningdek, ilmiy maqolalarni o'rganish davomida zamonaviy texnologiyalarning ilmiy yozuv jarayoniga katta ta'sir ko'rsatayotgani ham aniqlandi. Bugungi kunda elektron kutubxonalar, ilmiy platformalar va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali kerakli ma'lumotlarni tez topish imkoniyati kengaygan. Biroq bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki tayyor ma'lumotlarni nazoratsiz ko'chirib olish ilmiy etikaga zid hisoblanadi.

O'tkazilgan kuzatishlar, suhbatlar va tahlillar natijasida ilmiy maqola yozishda quyidagi jihatlar muhim ekanligi aniqlandi: fikrlarning izchilligi, ilmiy uslubga amal qilish, strukturaviy qismlarni to'g'ri shakllantirish, manbalardan samarali foydalanish hamda mustaqil tahlil yuritish. Aynan shu omillar ilmiy maqolaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida baholandi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ilmiy maqolalarning strukturaviy elementlarini to'g'ri shakllantirish uning sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Tadqiqot davomida maqola qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi, ilmiy uslubga rioya qilish va manbalardan to'g'ri foydalanish zarurligi aniqlandi. O'tkazilgan kuzatish va suhbatlar natijasida yosh tadqiqotchilarda akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish hamda plagiatdan qochish muhimligi ko'rsatildi. Umuman, sifatli ilmiy maqola ilm-fan rivojiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Ahmedov B. Akademik yozuv asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
3. Day R. A. How to Write and Publish a Scientific Paper. – Cambridge University Press, 2011.
4. Karimov I. Ilmiy maqola yozish usullari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Nurmonov A. Zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlari. – Toshkent: Tafakkur, 2019.

6. Swales J. M., Feak C. B. Academic Writing for Graduate Students. – University of Michigan Press, 2012.
7. To‘xliyev B. Ilmiy uslub va nutq madaniyati. – Toshkent: Universitet, 2017.
8. Valiyev Q. Akademik yozuv va ilmiy tahlil. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.